va texnologiyalardan samarali foydalanish hamda oila va ta'lim muassasasi hamkorligini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa bolalarning intellektual salohiyatini to'liq namoyon etishiga, bilim olishga bo'lgan barqaror qiziqishning shakllanishiga va kelgusida ta'lim jarayonida yuqori natijalarga erishishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Sh.M.Mirziyoyev. "Yangi O'zbekiston strategiyasi". Toshkent, "Ўзбекистон", 2023.

(2). F.R.Matkarimova, O.R.Matkarimova. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda kognitiv faoliyatni rivojlantirish orqali chet tili o'rgatishning zamonaviy metodlari. Conference on the role and importance of science in the mo-dern world, 2025.

(3). Sh.S.Muhamedova. Maktabgacha tarbiya yoshda bolalar kognitiv sohasining tadqiqi qilinishi. Central asian research journal for interdisciplinary studies (carjis), 2022.

(4). N.A.Isroilova, S.O.Nurmuhammadova. Maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv faoliyatni rivojlantirishda zamonaviy ta'limning ahamiyati. "Вестник магистратуры", 2024.

(5). M.Q.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi bolalar kognitiv faoliyatini rivojlantirish. Proceedings of international scjentific-practical conference on cognitive research in education. 2021.

Atadjanova Dinora Ulug'bekovna (UrDPI "Maktabgacha ta'lim" kafedrasi professori v.b., p.f.b.f.d. (PhD)., dotsent; dinoraatajanova90@gmail.com),

Matnazarova Charos G'afur qizi (UrDPI Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta'lim) 1-bosqich magistranti; matnazarovacharos@gmail.com)

BOLALAR ADABIYOTI VOSITASIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA AXLOQIY TARBIYANI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. *Mazkur maqolada bolalar adabiyoti vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy tarbiyani rivojlantirish masalalari yoritilgan. Bolalar adabiyotining tarbiyaviy ahamiyati, ertak, she'r, hikoya va rivoyatlarning bolalar ongiga ijobiy ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar adabiyotidan samarali foydalanish orqali mehr-oqibat, halollik, do'stlik, kattalarga hurmat kabi axloqiy fazilatlarni shakllantirish yo'llari ko'rsatib berilgan. Tadqiqot davomida bolalarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, axloqiy tarbiyani rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *bolalar adabiyoti, axloqiy tarbiya, maktabgacha yoshdagi bolalar, ma'naviy tarbiya, ertaklar, tarbiyaviy jarayon, axloqiy fazilatlar, pedagogik yondashuv.*

РАЗВИТИЕ НРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА ПОСРЕДСТВОМ ДЕТСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются вопросы развития нравственного воспитания у детей дошкольного возраста посредством детской литературы. Анализируется воспитательное значение детской литературы, а также положительное влияние сказок, стихотворений, рассказов и легенд на формирование нравственных качеств детей. В статье раскрываются эффективные пути использования детской литературы в дошкольных образовательных учреждениях для формирования таких нравственных качеств, как доброта, честность, дружба и уважение к старшим. Также определены педагогические возможности развития нравственного воспитания с учетом возрастных и психологических особенностей детей дошкольного возраста.*

Ключевые слова: *детская литература, нравственное воспитание, дети дошкольного возраста, нравственное развитие, сказки, образовательный процесс, нравственные ценности, педагогический подход.*

DEVELOPING MORAL EDUCATION IN PRESCHOOL CHILDREN THROUGH CHILDREN'S LITERATURE

Annotation. *This article examines the development of moral education in preschool children through children's literature. The educational value of children's literature is analyzed, with particular attention given to the positive influence of fairy tales, poems, stories, and legends on children's moral development. The study highlights effective ways of using children's literature in preschool educational institutions to foster such moral qualities as kindness, honesty, friendship, and respect for elders. Furthermore, the pedagogical opportunities for developing moral education are revealed, taking into account the age and psychological characteristics of preschool children.*

Keywords: *children's literature, moral education, preschool children, moral development, fairy tales, educational process, moral values, pedagogical approach.*

Kirish. Bugungi globallashuv davrida jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri bu barkamol avlodni tarbiyalashdir. Barkamol shaxsni shakllantirish esa, eng avvalo, bolalik davridan, xususan, maktabgacha ta'lim yoshidan boshlanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy fazilatlarni shakllantirishda bolalar adabiyoti muhim tarbiyaviy vosita hisoblanadi.

Bolalar adabiyoti orqali bolada yaxshilik va yomonlik, halollik va yolg'on, do'stlik va xiyonat, mehr-shafqat va befarqlik kabi tushunchalar shakllanadi. Shu bois ushbu mavzu dolzarb pedagogik muammo sifatida qaraladi.

Adabiyotlar tahlili. G.H.Ro'ziyevaning "Maktabgacha yoshdagi bolalarga axloqiy tarbiya berish" mavzusidagi maqolasida maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy jihatdan tarbiyalash bolaning ma'naviy dunyosini, uning ongini, axloqiy hislatlarini, shaxsiy sifatlarini tarbiyalash va rivojlantirish kerakligi, bolalarga axloqiy tarbiya berishda ularning his-tuyg'ulari, tasavvurlarini va xatti-harakatlarini tarbiyalash ko'rsatib o'tilgan. Axloqiy bilim berish esa bir qancha tarbiyaviy vazifalarni bajaradi. Inson hayoti va madaniyatining axloqiy qadriyatlari to'g'risida keng tasavvur, tushunchalar berilgan [1].

Sh.F.Daminovaning "Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda badiiy adabiyotining o'rni" maqolasida maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni tarbiyalashda, ta'lim va estetik jihatdan tarbiyalashda badiiy adabiyotining o'rni va ahamiyatini, shuningdek, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar nutqining o'sishida bolalar adabiyotining o'ziga xos xususiyatlar hamda shakllarini tasniflab bergan [2].

M.Q.Allayarovaning "Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda axloqiy tarbiyaning tutgan o'rni va vazifalari" maqolasida maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalshning ahamiyati, vazifalari va amalga oshirish usullari haqida ma'lumotlar bergan [3].

D.B.Hamroyevaning "Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalashda xalq og'zaki ijodining ertak janridan foydalanish zaruriyati" maqolasida maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalashda xalq og'zaki ijodining ertak janridan foydalanish, bolalarning tafakkurini rivojlantirish, o'zining fikrini mustaqil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirishni ilgari surgan [4].

D.Boqijonovaning "Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda axloqiy tarbiya" maqolasida bolalarda axloqiy his-tuyg'ular, tasavvurlar va xatti-harakatlarni tarbiyalash, axloqiy bilim berish bir qancha tarbiyaviy vazifalarni bajarishini aytib o'tgan [5].

U.X.Musayevaning "Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarga axloqiy tarbiya berishning ahamiyati" maqolasida maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni axloqiy jihatdan tarbiyalash vazifasi va mazmuni bolaning ma'naviy dunyosini, uning ongini, axloqiy hislarini, shaxsiy sifatlarini tarbiyalash va rivojlantirishni taqozo etadi. Axloqiy bilim berish bir qancha tarbiyaviy vazifalarni bajarishini, inson hayoti va madaniyatining axloqiy qadriyatlari to'g'risida keng tasavvur qilinishini ta'kidlagan [6].

Metodologiya. Mazkur tadqiqot shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, insonparvarlik pedagogikasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar hamda axloqiy tarbiya nazariyalariga asoslanadi. Tadqiqot metodologiyasining nazariy asosini Sharq mutafakkirlari (Abu Nasr Forobiy, Alisher Navoiy), zamonaviy pedagog-psixologlar (L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, J.Piaje) hamda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar tashkil etadi.

Bolalar adabiyotining tarbiyaviy imkoniyatlarini o'rganishda faoliyat yondashuvi, tizimli yondashuv, madaniy-tarixiy yondashuv va integrativ yondashuvlardan foydalaniladi.

Axloqiy tarbiya bu bolalarda jamiyat tomonidan qabul qilingan axloqiy me'yorlar, xulq-atvor qoidalari, ijtimoiy munosabatlarni ongli ravishda o'zlashtirish jarayonidir. Axloqiy tarbiyaning asosiy vazifalarini ertaklar bilan qiyoslab tushuntirish va ularga namuna sifatida ijro qilish, yaxshilik va yomonlikni ajrata olish, to'g'ri xulq-atvorni shakllantirish, kattalarga hurmat, kichiklarga g'amxo'rlik, mehnatsevarlik, halollik, rostgo'ylik, vatanparvarlik va insonparvarlik tuyg'ularini rivojlantirish tashkil etadi. Axloqiy tarbiyaning asosini shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatga asoslangan, kompetensiyaviy hamda integrativ yondashuvlar tashkil etadi. Ushbu yondashuvlar bolani ijtimoiy-axloqiy jihatdan rivojlantirishda bolalar adabiyotining tarbiyaviy imkoniyatlarini tizimli ravishda qo'llashni taqozo etadi. Axloqiy tarbiyani rivojlantirishda nazariy tahlil mavzuga oid pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarni o'rganish kuzatish. Bolalarning badiiy asarlarni idrok etishi va axloqiy xulq-atvoridagi o'zgarishlarni aniqlashda axloqiy sifatlarini shakillantirishda muhim vosita hisoblanadi

Maktabgacha yosh davr axloqiy tarbiyani shakllantirish uchun eng qulay davr bo'lib, bu davrda bolaning onggi, hissiyoti va xulqi faoliyati shakllanadi

Maktabgacha yoshdagi bolalarga taqlidga moyillik, obrazli tafakkurning ustunligi, hissiy sezgirlik, ertak va hikoyalarga qiziqish, qahramonlarga o'xshashga intilish kabi xususiyatlar xosdir. Aynan shu xususiyatlar bolalar adabiyotini axloqiy tarbiya vositasi sifatida samarali qiladi.

Bolalar adabiyoti bolalar yoshiga mos, sodda, obrazli, tarbiyaviy ahamiyatga ega badiiy asarlar majmuasidir.

Bolalar adabiyotining asosiy turlari					
Ertaklar	Hikoyalar	She'rlar	Masallar	Topishmoqlar	Rivoyatlar

Bu janrlarning barchasi bolada axloqiy fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Ertaklar bolalar ongiga eng tez va chuqur ta'sir etuvchi adabiy janr hisoblanadi. Ertak janrini boshqa janrlardan ajratib turadigan bir qancha xususiyatlar mavjud bo'lib, yaxshilik doimo g'alaba qozonishi, yomonlik jazosiz qolmasligi, mehnatsevarlik, sabr-toqat, rostgo'ylik kabi hislatlar doimo ulug'lanishi shular jumlasidandir. Masalan, "Zumrad va Qimmat", "Bo'ri va echki bolalari", "Halollik" kabi ertaklar bolalarda axloqiy tushunchalarni shakllantiradi.

Hikoyalar real hayotga yaqin bo'lib, bolada kundalik axloqiy xulqni shakllantiradi. She'rlar esa ritm va ohang orqali tarbiyaviy g'oyalarni oson yodda qoldirishga yordam beradi.

Hikoya tuzishda tarbiyachi, asarni to'g'ri tanlashi, ifodali o'qib berishi, muhokama tashkil etishi, bolalarni mustaqil fikrlashga undashi bilan bir qatorda, tarbiyachining shaxsiy namunasi ham muhim ahamiyatga ega.

Axloqiy tarbiyani shakillantirishda suhbat savol-javob rolli o'yinlar dramatizatsiya rasm chizish kabi metodlar bolalarda axloqiy xulqni mustahkamlaydi. Oila va ta'lim hamkorligi eng ustuvor pog'ona hisoblanib, bularga uyda ertak o'qish hamda bolaga ijobiy muhit yaratish muhimdir.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, bolalar adabiyoti maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy tarbiyani shakllantirishning eng samarali vositalaridan biridir. Bularga ertak, hikoya va she'rlar orqali bolalarda insoniy fazilatlar, ijtimoiy xulq-atvor, milliy va umuminsoniy qadriyatlar rivojlanadi. Axloqiy tarbiyani shakllantirishda tarbiyachi va ota-onaning hamkorligi muhim hisoblanadi va axloqiy tarbiyani shakillantirishda muhim vosita hisoblanadi va jarayonning muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Axloqiy tarbiyani shakllantirishda bolalar adabiyoti maktabgacha yoshdagi bolalarning axloqiy tarbiyasni shakllantirishda eng samarali vositalaridan biri bo'lib xizmat qiladi. Badiiy adabiyotlar orqali bolalarga ertak, she'r, hikoya va rivoyatlar orqali bolalar yaxshilik va yomonlikni ajratishni, mehr-oqibat, halollik, do'stlik, kattalarga hurmat, mehnatsevarlik kabi axloqiy fazilatlarni ongli ravishda idrok etishni o'rganadilar. Badiiy obrazlar va qahramonlar xatti-harakati bolaning hissiy dunyosiga bevosita ta'sir etib, axloqiy me'yorlarni hayotiy misollar orqali tushunishga yordam beradi. Shu sababli bolalar adabiyotidan maqsadga muvofiq va tizimli foydalanish maktabgacha ta'lim jarayonida bolalarning axloqiy kamolotini ta'minlash, ularni jamiyatda munosib shaxs sifatida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). G.X.Ro'ziyeva. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarga axloqiy tarbiya berish mazmuni. Journal of international scientific research. February, 2025.

(2). Sh.F.Daminova. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda badiiy adabiyotining o'rni. Journal of science-innovative research. November, 2023.

(3). M.Q.Allayorova. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda axloqiy tarbiyaning tutgan o'rni va vazifalari. Maktabgacha ta'lim taraqqiyoti, muammo yechim va istiqbol. Andijon, 2025.

(4). D.B.Hamroyeva. Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalashda xalq og'zaki ijodining ertak janridan foydalanish zaruriyati. Educational Research in Universal Sciences, 2023.

(5). D.Boqijonova. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda axloqiy tarbiya. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences international scientific-online conference. 2025.

(6). U.X.Musayeva. Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarga axloqiy tarbiya berishning ahamiyati. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences Scientific Journal Impact Factor. November, 2022.

Ro'zmetov Azizbek Tangirberganovich (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti "Sport o'yinlari" kafedrasi dotsenti)

ZAMONAVIY VOLEYBOLNING DOLZARB MASALALARI VA O'YIN TEXNIKASINI TAKOMILLASHTIRISHNING UMUMIY ASOSLARI

Annotatsiya. *Maqolada zamonaviy voleybolning dolzarb muammolari va o'yin texnikasini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-uslubiy manbalar va mutaxassislarning fikrlari tahlil qilingan. Tahlillar natijasida o'yinga kiritilgan to'pni qabul qilish va uzatish texnikasini takomillashtirish yechimlari bo'yicha xulosalar qilingan.*